



Tarixiy va badiiy asarlarda Gavharshod beginning qiyosiy talqini

Bazarboyeva Madina Abdulla qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
yo'nalishi 2-kurs magistranti*

e-mail: bazarboyevamadina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada temuriy malika Gavharshodbeginning tarixiy va badiiy asarlarda yozuvchi va tarixnavislar tomonidan o'rganilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Uning davlat boshqaruvida tutgan o'rni, mavqeyi, to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanlarida Gavharshodbegin obrazi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Poyon Ravshanovning "Temuriylar silsilasi" asari, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi sadayin va majmuai bahrayn" asarlaridagi malika haqidagi tarixiy faktlarga tayanib umumiy xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Qiyosiy tahlil, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, Pirimqul Qodirov "Ona lochin vidosi", Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", Poyon Ravshanov "Temuriylar silsilasi", Abdurazzoq Samarqandiy "Matlayi sadayin va majmuai bahrayn"

The Comparative Interpretation of Gavharshod Begim in Historical and Literary Works

Annotation: This article presents a comparative analysis of how the Timurid princess Gavharshodbegin has been studied by writers and historians in historical and literary works. It provides information about her role and position in state governance. The image of Gavharshodbegin is comparatively analyzed in Pirimqul Qodirov's novel "Ona lochin vidosi" and Odil Yoqubov's "Ulug'bek xazinasi". Additionally, based on historical facts about the princess found in Poyon Ravshanov's "Temuriylar silsilasi" and Abdurazzoq Samarqandi's "Matlayi sadayin va majmuai bahrayn", a general conclusion is drawn.

Keywords: Comparative analysis, historical truth, literary fiction, Pirimqul Qodirov "Ona lochin vidosi", Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", Poyon Ravshanov "Temuriylar silsilasi", Abdurazzoq Samarqandi "Matlayi sadayin va majmuai bahrayn"

Сравнительное толкование образа Гавхаршод бегим в исторических и
Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ изучения тимуридской принцессы Гавхаршод бегим в исторических и художественных произведениях писателями и историками. Представлена информация о её роли и положении в государственном управлении. Образ Гавхаршод бегим сравнительно анализируется в романах Пиримкула Кадырова «Прощание с матерью-соколицей» и Одила Якубова «Сокровище Улугбека». Также на основе исторических фактов о принцессе, изложенных в произведениях Пайона Равшанова «Династия





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

тимуридов» и Абдурраззак Самаркандийского «Матла ас-садейн ва маджма ал-бахрайн», делаются общие выводы.художественных произведениях.

Ключевые слова: Сравнительный анализ, историческая правда, художественный вымысел, Пиримкул Кадыров «Прощание с матерью-соколицей», Одил Якубов «Сокровище Улугбека», Пайон Равшанов «Династия тимуридов», Абдурраззак Самаркандий «Матлаи садайн ва маджмуаи бахрайн»


Kirish

Mustaqillik bizga boy va betakror o'tmishimizni, tarixiy va madaniy merosimizni xolisona va ilmiy o'rganishga imkoniyat yaratdi. Sobiq sho'ro mafkurasi xalqimiz, yurtimiz tarixining ko'pgina zalvorli muammolarini o'z talablari doirasida, tarixiy haqiqatdan chekingan holda, buyuk davlatchilik shovinizmi g'oyalari asosida talqin qilishga majbur qildi. Ana shunday g'ayri ilmiy talqin etilgan masalalardan biri Amir Temur va temuriylarning o'zbek davlatchiligida, jahon tarixida tutgan o'rni va tarixiy xizmatlarining hukumron mafkura izmiga bo'ysundirilgan holda talqin etilishidir. Amir Temur, Mirzo Shohrux va Mirzo Ulug'bek singari sulolaning eng nufuzli vakillarining yirik davlat arboblari, o'rta asr islohotchilari, jasur adolatpesha, fan va madaniyat homiylari sifatidagi siymolari har turli mafkuraviy ta'surotlarga, kamsitilgan va adolatsiz baholarga qaramay, asrlar osha yashab keldi. Bundan tashqari, temuriy malikalar haqida birorta ilmiy ish, tadqiqotlar olib borilmadi. Mana shunday malikalardan bir Gavharshodbegimdir. Uning Temuriylar tarixida tutga o'rni va ahamiayati juda katta. Buga o'sha davr muarrixlari :Abdurazzoq Samarqandiy, Hofiz Abru, Al-Hasaniy,Sharafiddin Ali Yazdiylar ham o'z asarlari orqali guvohlik bergan.

Mustabid sho'ro tuzumi davrida temuriylar shaxsiga, faoliyatiga bir yoqlama baho berildi, ularga tuhmat – bo'hton toshlari yog'ildi. Bu adolatsizlik Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida qayta – qayta ta'kidlanadi. Jumladan, O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov yozganidek "...sobiq mustabid davrida yaratilgan tarixiy asarlarda Amir Temur va Temuriylar shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan bir yoqlama baho berildi. Ana shunday noto'g'ri va g'ayri ilmiy qarashlariga tanqidiy baho berib, Amir Temur va temuriylarga nisbatan tarixiy adolatni qaror toptirish bugungi Temurshunoslikning muhim vazifalaridan biridir" Shundan keyin birin-ketin ilmiy tadqiqot ishlari olib borila boshlandi. Nafaqat tarixshonoslar, balki yozuvchi va shoirlar ham tarixni qayta tiklashga qat'iy bel boshlashdi. Quyida biz Gavharshod begim haqidagi tarixiy haqiqatlar va ularning badiiy adabiyotimizdagi in'ikosi bilan tanishib chiqamiz.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Ma'lumki, bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. Bu – jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir" . Aynan yurtimizda Ikkinchi Renessansni yuzaga kelishida Amir Temur, Shohrux Mirzo va Mirzo





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ulug'bek singari hukmdorlarning olib borgan adolatli, xalqparvar siyosatining o'rni va hissasi nihoyatda kattadir. Mana shunday buyuk podsholarning ortida irodali va dono ayol turadi, albatta. Shohruh Mirzoning suyakli rafiqasi, Mirzo Ulug'bekning validasi Gavharshod begim har qanday vaziyatda bunday yirik davlat arboblarni qo'llab-quvvatlashda, markazlashgan davlat barpo etishda jonbozlik ko'rsatadi. Asl kelib chiqishi tarxonlarga borib taqalgani tarixiy manbalardan bizga ayon. Tarxonlar Amir Temur davrida alohida hurmat-e'tiborga loyiq, soliqlardan ozoq qilingan va sulton oilasiga yaqin kishilar bo'lishgan, yoshligidan ot minib, qimiz ichib katta bo'lgan Gavharshod begim Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo nikohiga beriladi. Tarixchi va adabiyotshunos Poyon Ravshanov "Temuriylar silsilasi" asarida ular 14 yoshida nikohlangani va to'ylari haqida tarixiy ma'lumotlarni keltiradi. Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida bu to'y haqida quyidagi mulohazalar bayon qilinadi. Gavharshod begim 1379-yilda tug'ilib, 14 yoshida Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Yosh kelin to'y kuni Sohibqiron qaynotasidan oltinsirg'a in'om oladi. Qaynonasi Bibibxonim bu sirg'alarni kelinining qulog'iga ta'qib qo'yar ekan. Bu xonadon sohibining gapiga quloq solishi kerakligini ta'kidlaydi. Lekin xonadon egasining gapiga bo'ysunib yashash malikaga onson kechmadi. Begoyimning tole'yiga Shohruh Mirzo faqat qilich chopadigan bahodir yigit emas, balki ilm-u ma'rifatdan xabardor, mutolaani sevadigan, oilaga mehr qo'ygan inson bo'lib chiqdi. Gavharshod begim xuddi qaynonasi singari Shohruh Mirzo bilan farovonli hayot kechirdi. Shohruh va Gavharshod begim bir yoqadan bosh chiqarib, hokimyat jilovlarini mahkam tutganliklari, o'g'illarini insof va adolat ruhida tarbiya qilgani uchun to'rt o'g'ildan birortasi bir-biri bilan yovlashgan, ot-onalariga qarshi bosh ko'targan emas. Gavharshod begimning Sohibqiron qaynotasiga cheksiz hurmat-e'tibori, sadoqati Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida quyidagicha yoritiladi: "Mirzo Ulug'bek ko'zini yumib, boshini sekin chayqadi. U validayi mehriboniga nisbatan ko'nglida iliq bir tuyg'u uyg'otishga harakat qildi. Lekin ko'z oldiga uzun bo'yli, ko'k ipakdan keng ko'ylak kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'ragan, qo'lidan tasbehi tushmaydigan kalondimog' bir xotin keldi. U qosh-ko'zlari qop-qora, qiyg'ir burun, xushsurat xotin bo'lsa ham, farishtasi yo'q chehrasi sovuq ayol edi"

Shu o'rinda savol tug'iladi nega ikki yirik yozuvchi asarlarida bu obrazga ikki xil yondashuv mavjud. Tarixiy faktlar asosida aslida temuriy malik Gavharshod begimga ta'rif berib o'tsak:

Poyon Ravshanovning "Temuriylar silsilasi" kitobida quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz: Hijriy 850 yilning navbahori (1447 yil, mart) Xurosonda Temuriylar saltanati uchun xosiyatsiz boshlandi. Hiroti poytaxt qilib, mamlakatni qirq ikki yil izmiga olgan Sohibqiron Amir Temurning kenja o'g'li, donishmand hukmdor Shohruh Mirzo yetmish ikki yoshida olamdan qaytish qildi. Saroy a'yonlari va xonadon a'zolari uchun bu ko'pdan kutib kelinayotgan, ammo sodir bo'lish vaqti mubxam fojeiy voqea edi. Marhum podshohning xotini Gavharshod Begim hammadan ko'ra, erining omonatini tezroq topshirishini ich-ichidan kutar, xokining Samarkandga olib ketilishini faraz kilardi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bularni xayolida o'ylab, keyingi paytlarda birinchi malika - Mahdsi ulyolik maqomiga zid noxush xayollarga erk berayotganidan pinagini ham buzmasdi. Malikaning SHohruh Mirzo bilan shohona go'shangaga kirganiga oz emas, ko'p emas, ellik to'qqiz yil kechibdi. Sohibqiron qaynotasi Amir Temur hayotligida Gavharshod Begim oliy inoyatlarda ko'p sonli kelinlardan biri sanog'ida bo'lardi. Avlodi, kimsan, sal- tanatda katta imtiyozga ega bulgan Tarxonlarga tutashgan Gavxarshod Og'o o'sha paytlar Jahongir Mirzoning bevasi Xonzoda Begim tugul, Umarshayx Mirzoning kuz ochib ko'rgani, so'ng o'ziga kundosh tushgan Malikat Og'o darajasida ham e'tibor qozonmagandi. Bu fakt ham haqiqatga juda yaqin, negaki Shohruh Mirzo va Gavharshodbegimning olti yil farzandi bo'lmagan. Nihoyat Gavharshodbegimning istiqboliga to'ng'ich farzandi Mirzo Ulug'bek dunyoga kelgach uning qaynonasi Saroy Mulki Xonim oldidagi obro'zi ham bir qadar oshgan edi.


Abdirazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma' al-bahrayn" asarida ham Gavharshodbegim shaxsiga oid ishonchli dalillarni toppish mumkin. Ushbu asarda malika davlat arbobi, ko'plab savobli ishlarga qo'l urgan Muslima ayol sifatida gavdalanish bilan bir qatorda, mamlakatda fitna qo'zg'agan, saroy ahlini bir-biriga gijgijlagan malika sifatida ham bayon qilingan. «SHu yili (hijriy 845, milodiy 1441-1442) Mahdi ulyo Gavharshod Og'o Samarqand tomon otlandi. Buning sababi quyidagicha edi: Mirzo Abdullatif yoshlik chog'idan boshlab, buzrukvor buvasi baxtli xodonning xizmatida bo'lib, onhazrat shahzodani bir necha yil ka- moli shafqat va inoyat bilan tarbiyat qildi. Bu yilning boshida Abdullatif ijozat so'rab, xafalangandek Samardandga ketib qolgan, uning ranjiganligi ko'proq Mahdi ulyo Gavharshod Og'odan edi, chunki Mahdi ulyo amirzoda Alouddavlaga nisbatan ortid mudabbati borligi sababli, boshda farzandlarga ko'pda iltifot ko'rgazmas edi». Ushbu tarixiy dalillar aslida Gavharshod begimning qanday shaxs bo'lganini tushunishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, har qanday tarixiy shaxsni badiiy asarda yiki tarixiy asarlarda yoritishda sinchkovlik va ko'proq fakt va dalillarga tayanish talab qilinadi. Aayniqsa, Gavharshod begim shaxsi borasida bu alohida ahamiyatli masala:

✓ Eng birinchi navbatda, Gavharshodbegim obraziga bir qancha yozuvchilar murojaat qilganlari holda, uning aynan o'z asarlari uchun xos bo'lgan qiyofasini yaratib berishga urinadilar. Shu sababga ko'ra, tadqiqotchi oldida o'z asarida boshqa asarlardagi Gavharshodbegimdan tamomila farqli, ammo tarixiy haqiqatga zid kelmaydigan Gavharshodbegim qiyofasini yaratishi zarur;

✓ Ikkinchi navbatda esa, Gavharshodbegim bahsli tarixiy shaxsdir. Uning saroyda olib borgan faoliyatiga, farzandlari bilan bo'lgan munosabatiga hamma turlicha yondoshadi, baho beradi. Muallif esa ayni shu o'rinda eng maqbul pozitsiyani tanlay olishi, xolislik prinsipiga amal qilishi, tarixiy haqiqatga betaraf munosabatda bo'la olishi zarur.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusidan. 2021 yil 16 avgust
3. Pirmqul Qodirov "Ona lochin vidosi" "Adabiyot uchqunlari" T-2018 B-4
4. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" "Nodirabegim nashriyoti" T-2024 B-23
5. Poyon Ravshanov "Temuriylar silsilasi" "Yangi asr avlodi" T-2017 B-10
6. Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sadayin va majmuai bahrayn"
7. Ugli, G. K. K. (2025). CHARACTERISTIC EEG PATTERNS IN SSPE AND THEIR CORRELATION WITH CLINICAL STAGES. ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES, 2(2), 26-30.
8. Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2024). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(12), 16-27.

